



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Magstir. Murodova Aziza Sobirjonovna

Qashqadaryo, O'zbekiston

Email: Murodovaaziza442@gmail.com

Tel:+998 91 453 98 94

Annotatsiya

Ushbu tezisdagi bugungi kunda o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'zini tahlil qilinishi va shu bilan bir qatorda, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish o'quvchilarda o'z hayotiy pozitsiyasini egallashi uchun asosiy omillardan biri ekanligi ochib beriladi. Shuningdek, ushbu tezisdagi o'quvchilarning axborotni tahlil qilishi, boshqa manbalar bilan taqqoslashi, mustaqil qaror qabul qilishi hamda turli holatlarni subyektiv omillardan holi tarzda baholash qobiliyatini shakllantirishda interaktiv platformalar, onlayn resurslar va mobil ilovalarning ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalardan to'g'ri va maqsadli foydalanish o'quvchilarning akademik yutuqlarini, muloqot qilish qobiliyatini, dars davomidagi faolligini hamda darsga ijodiy yondashuvini kuchaytirishda o'qituvchilarga katta yordamchi vazifasini bajaradi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, interaktiv platformalar, zamonaviy ta'lim, raqamli texnologiyalar, qaror qabul qilish, muloqot ko'nikmalari.

Kirish

Barchamizga ma'lumki, XXI asr – texnologiyalar asri. Bugungi kunda biz hayotimizni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etolmaymiz. Texnologiyalarning rivojlanishi va ularning keng qo'llanishi nafaqat bizning turmush tarzimizni, balki ta'lim jarayonlarini hamda ish faoliyatlarini ham o'zgartirdi. Ayni vaqtda maktabni shunchaki ma'lumotlarni, faktlarni va turli xil formulalarni yodlash metodikasidan foydalangan holda tamomlash real hayotda katta yutuqlarga



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfséries.com

20th October 2025

erishish uchun yetarli bo'lmaydi. Chunki hozirda bizda ma'lumotlarni saqlash, hisob-kitob amallarini bajarish va shu kabi faoliyatlarni juda ham a'lo darajada nuqsonsiz bajaruvchi texnologiyalarimiz mavjud. Endilikda texnologiyalashtirilgan hayotda muvaffaqiyatli kadrlarni yetishtirish uchun avvalo maktablardagi o'qitish tizimini o'zgartirib, e'tiborimizni o'quvchilar fakt va formulalarni yodlashiga emas, balki ularda tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga qaratishimiz lozim. Nafaqat tanqidiy fikrlash, balki turli xil vaziyatlarda jarayonni obyektiv baholash, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantirishimiz talab etiladi. Jamiyatda axborot uzatish usullari va vositalarining o'zgarishini ifodalovchi 21-asrning boshlariga to'g'ri keladigan raqamlashtirish, ushbu jarayonning zamonaviy bosqichi bo'lib, uni uzluksizligida insonning tabiiy og'zaki nutqining paydo bo'lishi, yozuv, bosmaxona, radio va televidenie, elektron raqamli televidenie, elektron raqamli televidenie, transmissiya vositalari (noutbuklar) kabi tsivilizatsiyaviy muhim yutuqlar bilan bog'langan holda ko'rish mumkin. planshet, smartfon, interaktiv doska va boshqalar). Shu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, insonning tabiiy so'zlashuv tilining paydo bo'lishi insondagi biologik va psixologik o'zgarishlar – o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan. Insonning o'zini ma'lumot uzatish vositasi sifatida (qo'lning maxsus tuzilishi, miyaning funktsional assimetriyasi va uning kortikal tuzilmalari, artikulyar apparatlarning maxsus tuzilishi, protologik fikrlash qobiliyati, so'ngra mavhum fikrlash va boshqalar), tsivilizatsiyaning keyingi yutuqlari odamlardan tashqarida texnologiya sifatida ma'lum bo'lgan vositalar va qurilmalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. Bugungi kunning zamonaviy mutaxassisi raqobatbardosh ta'lim bozorida o'z o'rnini topishi uchun yangicha yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishi lozimdir. Ta'lim sifati, eng avvalo, ta'lim jarayonining bosh bo'g'ini, uning ham ob'yekti, ham sub'yekti sifatida o'quv materialini o'zlashtirish darajasiga bog'liq hisoblanadi. 4K modeli esa globallashtirish zamonida ta'lim sifatini oshirishda muhim katalizatorlik vazifasini bajaradi. 4K tushunchasi odatda kognitiv, metakognitiv, ijtimoiy va hissiy sohalardagi kompetensiyalarni ifodalashda qo'llaniladi. 4K hamkorlik, muloqot, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikdirni o'z ichiga qamrab olgan innovatsion yondashuvdir. Shuningdek ushbu yondashuv o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z

International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econferences.com

20th October 2025

ichiga oladi.4 “K” modelining tarkibida 4 ta “K” harfi bilan boshlanadigan tushunchalar o‘z aksini topgan (1-rasm).



1-rasm.4K modeli va uning tushunchalari tavsifi

Tanqidiy fikrlash – bu mutolaa qilingan, eshitgan, gapirgan yoki yozgan ma’lumotlarni tahlil qilish, sharhlash, baholash va xulosa chiqarishga qaratilgan fikrlash turidir. Tanqidiy atama yunoncha “kritikos” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "hukm qila oladigan yoki farqlay oladigan" degan ma'noni anglatadi. Yaxshi tanqidiy fikrlash ishonchli ma'lumotlarga asoslanib, ishonchli xulosalar chiqarishdir. Tanqidiy fikrlashni qo'llash salbiy bo'lish yoki xatolarga e'tibor

International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th October 2025

berishni anglatmaydi. Bu muammo yoki ma'lumotni parchalash, uni talqin qilish va shu talqindan asosli qaror yoki mulohazaga kelish uchun foydalanish (masalan, ko'prikn loyihalash, fikrga javob berish yoki siyosiy motivni tushunish) uchun fikringizni aniqlashtirishni anglatadi. Tanqidiy fikrlash quyidagi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi (2-rasm).



2-rasm. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalari

Tanqidiy (kritik) fikrlash – bu shaxsning ma'lumotlarni tahlil qilish, asosli savollar berish, bir nechta nuqtai nazarlarni solishtirish va oqilona xulosa chiqarish qobiliyatidir. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarda boshlang'ich ta'lim bosqichidanoq tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish nafaqat ularning raqamlashtirilgan hayotimizda muvaffaqiyatli bo'lishini, balki shaxsiy hayotida ham turli xil vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilishini ta'minlaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan faol



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies


Hosted online from Madrid, Spain

Website: econferences.com

20th October 2025

foydalanish islohotlari amalga oshirilmoqda va ularning keng qo'llanilishi natijasida o'quvchilarning darsdagi faolligi hamda o'zlashtirish samaradorligida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Shu bois o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. XX asrning buyuk psixologlaridan biri Lev Vygotskiy o'zining "Ijtimoiy ong va rivojlanish nazariyasi" da ta'kidlashicha, bola rivojlanishi nafaqat biologik omillarga tayanadi, balki ijtimoiy va madaniy muhit bilan ham uzviy bog'liqdir. Uning fikricha, bolaning fikrlash qobiliyatlarini va shaxsiy rivojlanishini shakllantirishda til va muloqot asosiy rol o'ynaydi. Demak, raqamlashtirilgan ta'limda turli xil interaktiv platformalardan foydalangan holda o'qituvchi jonli va faol muloqot jarayonini shakllantirishda to'siqlarga duch kelmaydi, balki o'quvchilarda darsga qiziqish paydo qiladi va ularning faolligini oshiradi. Shuningdek, tanqidiy fikrlashga "Axborotni asosli baholash, dalillarni va faktlarni tahlil qilish va oqilona qaror qabul qilish jarayoni" sifatida ta'riflaydigan yana bir tadqiqotchilarimizdan biri mustaqil izlanuvchi Facione (2015) hisoblanadi. Ushbu mavzuda tadqiqot olib borgan izlanuvchilar orasida bir qator o'zbekistonlik tadqiqotchilarni ham ko'rish mumkin. Ulardan biri Azizova (2022) O'zining ilmiy asarlarida raqamli vositalarni tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi o'rnining muhimligini ta'kidlagan holda, ularni dars jarayonida to'g'ri integratsiya qilish o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali natijalar ko'rsatishini isbotlab bergan (3-rasm).



3-rasm. Raqamli texnologiyalar va uning afzalliklari.

Interaktiv o'quv platformalar

Raqamli texnologiyalar o'quvchilarga mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish imkonini beradi. Jumladan Kahoot, Quizizz, Mentimeter kabi interaktiv testlar orqali o'quvchilar tanlov asosida tez va tanqidiy fikr yuritishni o'rganadilar. Undan tashqari Edmodo, Google Classroom kabi platformalarda muhokama forumlari tashkil etilib, turli fikrlarni solishtirish imkoniyati yaratiladi.

Virtual va simulyatsion muhitlar

Virtual laboratoriyalar yoki simulyatsiyalar o'quvchilarga muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishni o'rgatadi. Masalan tabiiy fanlar jarayonida virtual amaliy tajribalar o'tkazish, iqtisod yoki texnika fanlarida raqamli modellash orqali strategik qarorlar ishlab chiqish.

Axborot tahlili va media savodxonlik

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri – axborotni tahlil qilish va ishonchliligini tekshirishdir. Texnologik yondashuvlar orqali



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th October 2025

internetdagi turli manbalarni faktcheking vositalari bilan tekshirish. Sun'iy intellekt yordamida soxta ma'lumotlarni aniqlash mashqlari ens samarali usullardan biridir.

Onlayn muhokama va jamoaviy loyiha faoliyati

Raqamli vositalar orqali o'quvchilar o'zaro fikr almashib, bahs-munozara madaniyatini rivojlantiradi. Padlet yoki Trello orqali jamoaviy fikrlar xaritasini tuzish. Zoom, Microsoft Teams orqali o'tkaziladigan bahslar tanqidiy nuqtai nazarni kengaytiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi texnologiyalarning rivojlanishi va keng ko'lamda foydalanilishi natijasida ta'lim sohasida ham katta islohotlar amalga oshirildi va hali ham davom etmoqda. Jumladan, zamonaviy ta'lim sinfxonalarida texnologiyalarga talab o'trdi. Chunki o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, oqilona qaror qabul qilish va har qanday faoliyatga ijodiy yondashish qobiliyatini rivojlantirishda texnologiyalar muhim rol o'ynaydi. Turli xil tajriba va tadqiqotlar natijasida ko'rishimiz mumkinki, texnologiyalarni sinfxonalariga to'g'ri integratsiya qilish o'quvchilarning darsga qiziqishini, dars davomidagi faolligini va eng muhimi dunyoqarashini, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali natijalar aks ettirmoqda. Zamonaviy ta'limda interaktiv platformalardan, mobil ilovalardan foydalanish nafaqat o'quvchilarning akademik hayotidagi, balki shaxsiy hayotidagi ijobiy o'zgarishlarga ham sababchi bo'ladi, jumladan insonlar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olimov, S., Samiyeva, S., Ibragimov, U. B., Mirzoeva, S., & Sharopov, S. (2024, December). Methodology for Developing Students' Information and Communication Competence in the Process of Distance Learning in the Modern Educational Environment. In International Workshop Hybrid methods of modeling and optimization in complex systems (pp. 305-318). Cham: Springer Nature Switzerland.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th October 2025

-
2. Azimova M. (2025). Raqamli vositalar orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari. CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD, 2(8), 81–83. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17094806>
 3. Azizova, M. (2022). Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda raqamli vositalarning o'rni, Ta'lim innovatsiyalari jurnali, №3
 4. Facione, P.A. (2015). Critical Thinking: What It Is and Why It Counts.
 5. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher
 6. Psychological Processes.
 7. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10982346>.